



SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-fevral)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-fevral oyilariga chakana savdo tovar aylanmasi 1299,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 126,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 12,9 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1172,6 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 3,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 118,1 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 % ga ko`paygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Termiz sh(8,7 %), Qumqurg'on (6,6 %) Termiz t (6,5 %) Denov (6,0 %) va Sherabod (5,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga o'sdi va 126,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,8 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 1172,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oyilariga nisbatan 3,9 % ga o'sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,2 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99,2 %), Uzun (98,4 %), va Denov (97,3%) ,

tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (29,8 %), Termiz (14,2%) va Jarqo'rg'on tumanlarida(5,9 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (22,9 foiz), Denov tumani (21,1 foiz), Sho'rchi (8,9 foiz) va Sherabod (5,7foiz), tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	126,9	112,9	1172,9	103,9
Termiz Sh.	88,6	232,0	209,1	100,9
Oltinsoy	1,7	36,7	54,0	104,9
Angor	2,5	47,3	54,4	101,2
Boysun	2,4	59,9	51,4	100,1
Muzrabot	0,4	16,6	50,3	105,3
Denov	7,4	58,3	266,3	105,6
Jarqo'rg'on	4,1	55,5	65,8	104,2
Qumqo'rg'on	2,6	47,0	53,7	104,1
Qiziriq	2,1	44,9	55,0	103,7
Sariosiyo	2,2	71,9	53,3	103,3
Termiz	4,8	70,3	29,1	108,5
Uzun	0,8	21,5	48,1	103,8
Sherobod	3,2	54,2	70,5	103,5
Sho'rchi	4,1	51,9	111,6	104,9

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oyilari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 %ni tashkil etib, 25,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 9,2 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 91,2 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**SURXONDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar-fevral)

Yanvar oyida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 328,2 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 10,4 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oyilari yakunlariga ko`ra, 244,3 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 74,4 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (93,0), Sariosiyo (92,3%), Boysyn (87,0%) va Angor (83,9%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 25,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Qumqurg'on(57,0%), Muzrabot (50,6%) va Jarqo'rg'on (44,9%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
--	---------------------	--	------------------------------------	---	-------------------------------------	--

Surxondaryo viloyati	328,2	110,4	83,9	130,5	244,3	104,8
Termiz Sh.	61,4	110,2	22,6	121,7	38,8	104,5
Oltinsoy	14,7	113,6	5,1	130,9	9,6	106,2
Angor	21,1	121,3	3,4	509,4	17,7	105,9
Boysun	1,4	89,4	0,2	45,7	1,2	104,4
Muzrabot	12,7	112,3	6,4	124,9	6,3	12,7
Denov	74,5	109,7	13,3	131,0	61,2	74,5
Jarqo'rg'on	24,8	108,5	11,1	115,2	13,7	24,8
Qumqo'rg'on	13,0	122,9	7,4	142,0	5,6	13,0
Qiziriq	19,5	107,5	3,3	128,8	16,2	19,5
Sariosiyo	12,1	104,2	0,9	94,4	11,2	12,1
Termiz	38,3	110,2	2,7	246,0	35,6	38,3
Uzun	6,2	102,9	1,1	103,1	5,1	6,2
Sherobod	20,5	105,1	3,7	120,7	16,8	20,5
Sho'rchi	8,0	114,4	2,7	146,8	5,3	8,0

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida oʼtgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi oʼshish surʼati Boysun tumanida (89,4 %) va eng yuqori oʼshish esa Qumqurgʼon tumanida (122,9%) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi boʼlimi
(0371) 230-85-82